



XITOIY ILMIY ADABIYOTIDA O‘ZBEKISTON MUSTAQILLIGINING DASTLABKI YILLARI O‘RGANILISHI (1991– 2000)

Tasanov Azizbek Niyatulla o‘g‘li

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti 1-bosqich magistranti

E-mail: azizbektasanv@gmail.com

ORCID ID: 0009-0007-3292-1524

Annotatsiya: Ushbu maqola Xitoy Xalq Respublikasi (XXR) ilmiy adabiyotida O‘zbekistonning 1991–2000 yillardagi mustaqillik davri qanday aks etganini tahlil qiladi. Tadqiqot Xitoyning yetakchi olimlari va muassasalarining asarlariga asoslanib, mavzuning siyosiy, iqtisodiy, etnik va diplomatik jihatlarini ko‘rib chiqadi. Maqsad – Xitoy tarixshunosligidagi O‘zbekiston tasvirini ob'ektiv va chuqur taqdim etish.

Kalit so‘zlar: Markaziy Osiyo, Sovet Ittifoqi, geosiyosat, o‘zbek modeli, islom harakti, millatlararo munosabat, terrorizm, Buyuk ipak yo‘li

STUDY OF UZBEKISTAN'S EARLY YEARS OF INDEPENDENCE (1991–2000) IN CHINESE SCHOLARLY LITERATURE

Tasanov Azizbek Niyatulla o‘g‘li

First-year Master’s Student, Tashkent State University of Oriental Studies

E-mail: azizbektasanv@gmail.com

ORCID ID: 0009-0007-3292-1524

Annotation: This article analyzes how the period of Uzbekistan's independence from 1991 to 2000 is reflected in the scholarly literature of the People's Republic of China (PRC). The study is based on works by leading Chinese scholars and institutions and examines the political, economic, ethnic, and



diplomatic aspects of the topic. The aim is to provide an objective and in-depth presentation of the image of Uzbekistan in Chinese historiography.

Keywords: *Central Asia, Soviet Union, geopolitics, Uzbek model, Islamic movement, interethnic relations, terrorism, Great Silk Road*

Kirish. 1991 yil Sovet Ittifoqining parchalanishi Markaziy Osiyo mintaqasida yangi davlatlarning paydo bo'lishiga olib keldi. O'zbekiston Respublikasi mustaqillik e'lon qilgach (1991 yil 31 avgust), davlat qurilishi, iqtisodiy transformatsiya va xalqaro munosabatlarning yangi bosqichi boshlandi. O'zbekistonning mustaqillik yo'li va uning xalqaro maydondagi o'rni XXR ilmiy doiralarida alohida qiziqish uyg'otdi. Sovet Ittifoqining parchalanishi (1991 yil 26 dekabr) bilan bog'liq geosiyosiy o'zgarishlar fonida Xitoy Xalq Respublikasi O'zbekiston Respublikasining suverenitetini 1991 yil 27 dekabrda tan oldi va 1992 yil 2 yanvarda diplomatik munosabatlar o'rnatildi¹. Ushbu tezkor qadam nafaqat ikki davlat o'rtasidagi siyosiy aloqalarning boshlanishi, balki Xitoyning Markaziy Osiyodagi strategik manfaatlarini (chegara xavfsizligi, savdo va mintaqaviy barqarorlik) aks ettiruvchi muhim bosqich bo'ldi. Aynan shu davrdan boshlab Xitoy ilmiy adabiyotida O'zbekistonning mustaqillikdan keyingi transformatsiyasi faol o'rganila boshlandi. 1990-yillarning boshlaridan Xitoy akademik hamjamiyati mintaqaga sezilarli darajada ko'proq e'tibor qaratdi. Markaziy Osiyo tarixi va madaniyati bo'yicha monografiyalar va maqolalar paydo bo'ldi. Ushbu monografiyalarni keng miqyosda **beshturga** bo'lish mumkin: fundamental tadqiqotlar, mintaqaviy xavfsizlik, tashqi aloqalar, energetika strategiyasi va mintaqaviy hamkorlik².

Markaziy Osiyo jumladan O'zbekiston endi mustaqillikga erishganda nafaqat O'zbekiston xatto Markaziy Osiyo tushunchasi ham xitoyliklar uchun notonish. "Markaziy Osiyo Xitoyning g'arbiy qo'shnisi" degan fikr yaqinda paydo

¹

中国外交部官网

乌兹别克斯坦国家概况Elektron

URL:https://www.mfa.gov.cn/web/gjhdq_676201/gj_676203/yz_676205/1206_677052/1206x0_677054/ (murojaat sanasi 23.12.2025).

² 许涛. 中亚地缘政治沿革历史, 现状与未来: 时事出版社, 2016.-3 bet.



bo'lgan bo'lmasa-da, Markaziy Osiyo tarixi, madaniyati va sobiq Sovet Ittifoqining Markaziy Osiyo respublikalari bo'yicha ixtisoslashgan bir nechta mutaxassislardan tashqari, oddiy xitoyliklar o'zlarining madaniy va siyosiy hayotlarida Markaziy Osiyo bilan bog'liq deyarli hech narsaga duch kelishmagan. Biroq, Sovet Ittifoqi qulaganidan keyingi odamlarning Markaziy Osiyoga bo'lgan qiziqishi tez sur'atlar bilan oshdi. Bu o'zgarishning o'zi o'zgaruvchan geosiyosiy sharoitlarning mamlakat, jamiyat va jamoat hayotiga ta'sirini aniq ko'rsatadi³. Chunki garchi Markaziy Osiyo mintaqasi Xitoy bilan chegara bo'lsa ham, hatto tarixan ipak yo'li orqali bo'lgan aloqalarimiz mingyilliklarga taqalsa ham XX asr ikkinchi yarmida o'zaro madaniy, ijtimoiy va iqtisodiy aloqalar deyarli to'xtab qoldi. Buni xitoylik olim Vu Luming o'zining 1993-yilgi maqolasida shunday izohlaydi Sobiq Sovet Ittifoqining beshta Markaziy Osiyo respublikasi — Qozog'iston, O'zbekiston, Qirg'iziston, Turkmaniston va Tojikiston — Xitoyning yaqin qo'shnilari. Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston esa Xitoy bilan bevosita chegaradosh. Bu mamlakatlar Xitoy bilan qariyb ikki ming yillik do'stona aloqalar tarixiga ega. Dunyoga mashhur Ipak yo'li Xitoy va Markaziy Osiyo mamlakatlar o'rtasidagi do'stona munosabatlarni rivojlantirishda muhim rol o'ynadi va muhim bo'g'in bo'lib xizmat qildi. 1949-yilda Xitoy Xalq inqilobining g'alabasidan so'ng Xitoy uchun Markaziy Osiyo mamlakatlar bilan do'stona munosabatlarni rivojlantirishda davom etish uchun qulay sharoit yaratildi. Biroq, 1960 va 70-yillarda Xitoy-Sovet munosabatlarining yomonlashishi aloqalarning butunlay uzilishiga olib keldi. Yaqinlik, ammo to'liq izolyatsiya bilan tavsiflangan bu g'ayritabiiy munosabatlar 20 yildan ortiq davom etdi. 1980-yillarning o'rtalarida Xitoy-Sovet munosabatlari eriy boshladi Xitoy va Markaziy Osiyo mamlakatlar o'rtasidagi munosabatlar tiklana boshladi. Urumchi va Olmaota shaharlarini bog'laydigan temir yo'l hamda Urumchini Olmaota va Toshkent (O'zbekiston poytaxti) bilan bog'laydigan havo yo'li ochildi, bu Xitoy va Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasidagi ko'priklarni qayta tikladi va o'zaro siyosiy, iqtisodiy va madaniy almashinuvlar uchun yo'l ochdi⁴.

³ 许涛. 中亚地缘政治沿革历史, 现状与未来: 时事出版社, 2016.-1 bet.

⁴ 吴路明. 中亚五国现状, International Studies, 1993-03-02.



Shu sababli 90-yillarning boshida xitoylik ilmiy jomatchiligi Markaziy Osiyo hususan O'zbekiston haqida asosan umumiy malumotlar berish bilan cheklangan. Misol tariqasida Pu Kayning 1992-yilda Xinjiang Sociality and Economy jurnalida chiqqan "O'zbekiston Respublikasi bilan tanishish" maqolasida O'zbekistonning geografik joylashuvi, aholisi, sanoati va iqtisodiyoti haqida umumiy malumotlar berishlar bilan cheklangan. Vey Minyu tomonidan yozilgan "O'zbekiston: Hozirgi holat va kelajakdagi istiqbollar" maqolasida esa asosan O'zbekistonning 90-yillar birinchi davridagi iqtisodiy holati haqida yozadi. Vey Minyu maqolasi so'ngida O'zbekiston bilan yaqin savdo aloqalariga ega bo'lgan mamlakat sifatida Xitoy mahalliy bozor va mahalliy hukumatning siyosati va qoidalar bo'yicha chuqur tadqiqotlar olib borishda davom etishi kerak. Tovarlar almashinuvi bilan birga, Xitoy mahalliy iqtisodiy sektor bilan texnologik hamkorlikni ham o'rganishi va rivojlantirishi kerak, shuningdek, u yerda zavodlarga sarmoya kiritish va ularni tashkil etish juda foydali bo'ladi degan mulohaza bilan maqolasini yakunlaydi.⁵ Haqiqatdan ham 1990-yillar o'rtalaridan boshlab xitoylik olimlar asosan O'zbekistondagi iqtisodiy islohotlarga urg'u bera boshlaydi. Ayniqsa bu Yu Jun maqolarida aniq ko'zga tashlanadi. Maqolalarida O'zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimovning "O'zbek modeli"ni iqtisodiyotga ijobiy ta'sirini aytib o'tadi. Maqolasida MDH davlatlari yalpi ichki mahsuloti keskin pasayishda davom etayotgan bir paytda (masalan, Rossiya yalpi ichki mahsuloti 18% ga, Qozog'iston yalpi ichki mahsuloti esa 25,4% ga kamaydi), O'zbekiston noyob iqtisodiy hodisani namoyish etdi, pasayish atigi 3,5% ni tashkil etdi. Ba'zi ishlab chiqarish tarmoqlarida hatto biroz tiklanish kuzatildi. Hozirgi bozor taklifi hali ham qoniqarsiz bo'lsa-da, u sezilarli darajada yaxshilandi va taklifning katta qismi mahalliy ishlab chiqarilgan tovarlardan kelib tushdi, bu MDH mamlakatlarining aksariyati talab va taklif inqirozini hal qilish uchun import qilingan iste'mol tovarlariga tayanishidan keskin farq qiladi. Dastlab "shok terapiyasi"ga qattiq qarshi bo'lgan Prezident Karimov endi ambitsiyalarga to'la, O'zbekiston xalqiga 2000-yilga

⁵ 维民, 玉乙. 乌兹别克斯坦: 现状与展, China Store, 1996-04-05.



kelib har bir oila avtomobilga ega bo'lishini va'da qilmoqda. Shu bilan birga, O'zbekiston valyutasi keskin qadrsizlanishni to'xtatdi va som almashinuv kursi AQSh dollariga nisbatan endi nisbatan barqaror. Mamlakatning valyuta zaxiralari yanada oshdi va investitsiya muhiti yaxshilandi. Qo'shma Shtatlar, Germaniya, Italiya, Janubiy Koreya va Yaponiyadan kelgan tadbirkorlar O'zbekistonga tadqiqot o'tkazish, investitsiya kiritish va loyihalarni boshlash uchun kelmoqdalar, bu esa tashqi iqtisodiy faoliyatning keskin oshishiga olib keldi. Ilgari O'zbekiston chinakam iqtisodiy islohotlarni amalga oshiradimi va bozorni chinakamiga qabul qiladimi, degan savolga javob bergan Jahon banki va Xalqaro valyuta jamg'armasi kabi G'arb yetakchilari va moliya institutlari O'zbekistonning islohotlardagi yutuqlarini ochiqchasiga tan olishni boshladilar va O'zbekistonning iqtisodiy islohotlarini qo'llab-quvvatlash va yordamini sezilarli darajada oshirishga qaror qilishdi. Bularning barchasi O'zbekiston o'zining ijtimoiy rivojlanish modelini tanlash va iqtisodiy islohotlar strategiyasini shakllantirishda dastlabki muvaffaqiyatlarga erishganini to'liq ko'rsatadi. Shu sababli, Rossiya ommaviy axborot vositalari: "O'zbekistonning islohot choralari amalga oshirilayotgani va samarali bo'layotgani tezligi hayratlanarli!", deb atashdi deb maqolasida yozib o'tadi.⁶

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng ko'lab xalqaro ilmiy konferensiyalar o'tkazdi bu ham Xitoylik olimlar e'tiboridan chetda qolgani yo'q ayniqsa 1996-yil 24-25-oktabr kunlari Tashqi ishlar vazirligi va O'zbekiston Fanlar akademiyasi birgalikda Amir Temur tavalludining 660 yilligini nishonlash bo'yicha xalqaro akademik simpozium o'tkazdilar. Simpozium mavzusi "Amir Temur va uning jahon tarixidagi o'rni" edi. Konferensiyada AQSh, Fransiya, Turkiya, Eron, Pokiston, Germaniya, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Hindiston, Misr, Malayziya, G'arbiy Osiyo, Rossiya va boshqa yangi mustaqil MDH mamlakatlaridan vakillar ishtirok etdi. Konferensiyada Xitoy Ijtimoiy fanlar akademiyasining Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo tadqiqotlari instituti Markaziy Osiyo bo'limi direktori, tadqiqotchi Chjao Changqing va institut direktori yordamchisi doktor Na

⁶ 愚君 乌兹别克斯坦的发展战略与经济改革, 《国际社会科学》, 95年第9期17.



Guangcheng kabi beshta xitoylik olim ishtirok etdi.⁷ 1997-yil oktyabr oyida YUNESKO shofeligida O'zbekiston Respublikasi hukumati Markaziy Osiyoning tarixiy Buxoro va Xiva shaharlari tashkil etilganining 2500 yilligini nishonlash uchun xotira tadbirlari va xalqaro akademik simpozium o'tkazildi. Ushbu tadbir va konferensiyalarda ham O'zbekiston Tashqi ishlar vazirligi va Fanlar akademiyasining taklifiga binoan xitoylik olimlar tashrif buyurishdi. Bu konferensiyalar xitoylik olimlarning eslatmalarida o'z izini qold. Misol tariqasida Sin Guanchenning eslatmasidagi quyidagi jummalarni keltirib o'tish mumkin Sovet Ittifoqi qulaganidan so'ng, sobiq respublikalar mustaqillikka erishish jarayonida Sovet Ittifoqiga qarshi va Rossiyaga qarshi kayfiyat to'lqinlarini boshdan kechirdi. Mustaqillikka bo'lgan kuchli istak tufayli ko'plab hukumatlar va fuqarolar Sovet izini qoldirgan har qanday narsani yo'q qilishga intilishgan ko'rinadi. Shahar haykallari, yodgorliklar va ko'chalar yoki binolarning nomlari kabi eng aniq "sovet belgilari" birinchi bo'lib nishonga olindi, ular Sovet Ittifoqiga qarshi va Rossiyaga qarshi muhit va millatchilik bilan buzib tashlandi yoki o'zgartirildi. O'sha paytda O'zbekistonda bunday hodisalar mavjud emas edi, deb ayta olmaymiz, lekin O'zbekiston Sovet davri tarixini nisbatan to'g'ri yoritib bera olgan mamlakat bo'lganini aytishimiz mumkin, ayniqsa Sovet davridagi ba'zi ramziy va yodgorlik shahar binolari yaxshi saqlangan va bu albatta hurmatga sazovor bo'lganligi sabablidir deya yozib o'tadi.⁸

Xitoy ilmiy adabiyotida Markaziy Osiyo jumladan O'zbekiston bo'yicha olib borilgan izlanishlarning ko'pchiligi albatta mintaqa xavsizligi haqida yozilgan. Sababi Xitoy mintaqasi bilan bevosita chegara ekanligi va Xitoyning G'arbiy mintaqasi Shinjonda yashovchi millatlar ham etnik ham diniy yaqinligi sababli Xitoy 1990-yilllardagi Markaziy Osiyo xususan O'zbekistondagi o'tish davrini jiddiy o'rganib borishga majbur bo'ldi. Shuning uchun shu davrda Markaziy Osiyoda yuz bergan etnik nizolar va terroristik holatlar haqida maqolalar va xatto ilmiy desertatsiyalar yozildi. Misol tariqasida Chang Bin tamonidan yozilgan "Markaziy Osiyodagi barqarorlikga ta'sir qiluvchi ikkita asosiy omil: Islom va yirik

⁷ 邢广程. 中国和乌兹别克斯坦关系发展的新阶段, 东欧中亚研究1997-04-25.

⁸ 郝时远,雅森·吾守尔. 乌兹别克斯坦考察散记, WORLD ETHNO-NATIONAL STUDIES, 1998-06-20.



davlatlar o'rtasidagi kurash" PhD desertatsiya ishini ko'rishimiz mumkin. O'z ilmiy ishida Markaziy Osiyo mamlakatlarining mustaqilligi Shinjonning geosiyosiy muhitini tubdan o'zgartirganini. Xitoyda 1,1 milliondan ortiq qozoq, 15 000 o'zbek, 140 000 qirg'iz va 33 000 tojik yashashini. Ular Markaziy Osiyo mamlakatlaridagi qozoqlar, o'zbeklar, qirg'izlar va tojiklar bilan bir xil til, diniy e'tiqod, madaniy an'analar va turmush tarziga ega ekanligi. Ularning umumiy diniy e'tiqodlari, xususan, tabiiy va yaqin aloqalarni yaratishi. Markaziy Osiyoda islomning qayta tiklanishi Shinjondagi diniy ekstremistik guruhlar va etnik separatistlarni yanada kuchaytirdi. Ular ko'pincha diniy ekstremistik kuchlar, etnik separatistlar va chet eldagi xalqaro terrorizm bilan til biriktirib, separatistik va buzg'unchi faoliyat bilan shug'ullanadilar, bu esa Shinjon va Shimoli-g'arbiy Xitoyning xavfsizligi va barqarorligiga jiddiy tahdid soladi. Markaziy Osiyodagi "Islom omili" ma'lum darajada Shinjondagi turli etnik guruhlarining birdamligini susaytirishi va milliy birlikka putur yetkazuvchi bo'linish omili bo'lishi mumkin deya ta'kidlab o'tadi.⁹

Xitoy ilmiy adabiyotida O'zbekiston mustaqilligining dastlabki yillari (1991–2000-yillar) yuqori qiziqish bilan o'rganilgan, chunki Markaziy Osiyo mintaqasi, shu jumladan O'zbekiston, Sovet Ittifoqi parchalanishidan keyin nisbatan kam tadqiq etilgan hudud bo'lib qolgan edi. Bu davrda Xitoyning mintaqaga oid ilmiy ishlarida asosiy e'tibor xavfsizlik masalalariga qaratilgan, chunki yangi mustaqil davlatlarning paydo bo'lishi Xitoyning g'arbiy chegaralarida, xususan Shinjon-Uyg'ur muxtor rayonidagi etnik va diniy nizolar bilan bog'liq xatarlarni kuchaytirishi mumkin edi. Xitoy olimlari, masalan, Markaziy Osiyodagi etnik guruhlar (uyg'urlar, o'zbeklar va boshqalar) orasidagi munosabatlar, islomiy ekstremizm va transmilliy terrorizm masalalarini chuqur tahlil qilganlar, bu esa Xitoyning milliy xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan siyosatini shakllantirishda muhim rol o'ynagan. Shu bilan birga, O'zbekiston iqtisodiyoti va mintaqaviy iqtisodiy o'sish imkoniyatlari ham tadqiqot ob'ektiga aylangan, xususan, Xitoy sarmoyalarini jalb qilish va tabiiy resurslarni o'zlashtirish

⁹ 常盼. 论影响中亚稳定的两大因素:伊斯兰教与大国争夺, Doctoral Dissertations, 2000-05-20



bo'yicha loyihalar o'rganilgan. Ayniqsa, 1990-yillar ikkinchi yarmidan (taxminan 1996–2000-yillar) boshlab Xitoy ilmiy adabiyotida O'zbekiston bilan iqtisodiy va madaniy aloqalarga urg'u kuchaygan, bu esa ikki tomonlama munosabatlarning rivojlanishiga zamin yaratgan. Umuman olganda, bu davrdagi Xitoy ilmiy adabiyoti O'zbekistonni nafaqat xavfsizlik va iqtisodiy hamkorlik ob'ekti sifatida ko'rgan, balki qadimiy Ipak yo'li merosiga asoslangan uzoq muddatli madaniy aloqalarni tiklash vositasi sifatida baholagan.

ADABIYOTLAR:

1. 中国外交部官网. 乌兹别克斯坦国家概况[Elektron manba]. URL:https://www.mfa.gov.cn/web/gjhdq_676201/gj_676203/yz_676205/1206_677052/1206x0_677054/ (murojaat sanasi: 23.12.2025).
2. 许涛. 中亚地缘政治沿革历史，现状与未来：时事出版社，2016.-3 bet.
3. 许涛. 中亚地缘政治沿革历史，现状与未来：时事出版社，2016.-1 bet.
- 吴路明. 中亚五国现状， International Studies , 1993-03-02.
4. 维民,玉乙. 乌兹别克斯坦:现状与展， China Store, 1996-04-05.
5. 愚君. 乌兹别克斯坦的发展战略与经济改革，《国际社会与经济》，95年第9期 17.
6. 邢广程,中国和乌兹别克斯坦关系发展的新阶段,东欧中亚研究1997-04-25
7. 郝时远,雅森·吾守尔,. 乌兹别克斯坦考察散记, WORLD ETHNO-NATIONAL STUDIES ,1998-06-20.
8. 常玢. 论影响中亚稳定的两大因素:伊斯兰教与大国争夺, Doctoral Dissertations, 2000-05-20 .